

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**А.ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА
ИНСТИТУТИ**



**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИНГ ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ:
ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ ИНТЕГРАЦИЯСИ**

**СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ НАЧАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ:
ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ОБУЧЕНИЯ**

**MODERN TENDENCIES OF PRIMARY EDUCATION:
INTEGRATION OF EDUCATION AND TRAINING**

**“БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИНГ
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ:
ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ
ИНТЕГРАЦИЯСИ”**

**II Халқаро илмий-амалий
конференцияси
Жиззах шаҳри, 2022 йил 27 апрель**

**«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ:
ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И
ОБУЧЕНИЯ»**

**II Международная научно-практическая
конференция
Джизак, 27 апреля 2022 г.**

**“MODERN TENDENCIES OF PRIMARY
EDUCATION: INTEGRATION OF
EDUCATION AND TRAINING”**

**II International scientific-practical
conference
Jizzakh city, April 27, 2022**

I-қисм

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ

**“БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ:
ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ ИНТЕГРАЦИЯСИ”**

II Халқаро илмий-амалий конференцияси

Жиззах шаҳри, 2022 йил 27 апрель



**«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ:
ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ОБУЧЕНИЯ»**

II Международная научно-практическая конференция

Джизак, 27 апреля 2022 г.



**“MODERN TENDENCIES OF PRIMARY EDUCATION: INTEGRATION
OF EDUCATION AND TRAINING”**

II International scientific-practical conference

Jizzakh city, April 27, 2022



Жиззах – 2022

УДК: 378.046.4

**“Бошланғич таълимнинг замонавий тенденциялари: таълим ва тарбия интеграцияси” мавзусидаги II Халқаро илмий-амалий конференцияси
материаллари**

Жиззах – 2022. 428 б.

I ҚИСМ

Масъул муҳаррир:

Холбоева Гулнора Анорбоевна – педагогика фанлари номзоди, доцент.

Таҳрир хайъати:

Тўрақулов Х.А., Ибрагимова Ф..Э., Холбоева Г.А., Раббимов М.,
Усмонов А., Тангиров А., Қуттибекова Г., Хайдаров Д.,
Атабаев Ш.

Тақризчилар:

У.А.Жуманазаров – филология фанлари доктори, профессор
Ж.А.Ҳамидов – педагогика фанлари доктори, профессор

**Мақолаларни тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Бошланғич таълим методикаси
кафедраси мудири педагогика фанлари номзоди, доцент Холбоева Г.А.**

Ушбу тўплам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартдаги №101-сонли Фармойиши асосида Абдулла Қодирий номидаги Жиззах давлат педагогика институти 2022 йил 27 апрель куни Бошланғич таълим методикаси кафедрасида **“Бошланғич таълимнинг замонавий тенденциялари: таълим ва тарбия интеграцияси”** мавзусидаги II халқаро миқёсидаги илмий-амалий анжумани (офлайн ва онлайн) материалларидан ташкил топган.

Тўплам материалларидан мазкур мавзулар атрофида илмий-тадқиқот ишлари олиб бораётган изланувчилар: олимлар, таянч докторантлар, талабалар ҳамда кенг жамоатчилик вакиллари фойдаланишлари мумкин.

Мақолалардаги материалларнинг тўғри ва ҳаққонийлиги учун муаллифлар жавобгар.

TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA XORIJ TAJRIBASI

Abdirimova Intizor Kamilovna

Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Elmurodova Armongul

Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro baholash dastur talablari va ta'lim tizimiga joriy etish tamoyillari haqida so'z yuritish bilan birga, PISA, PIRLS, xalqaro baholash dasturlarining muhim belgilari xorijiy olimlar fikrlariga, ilmiy-tadqiqot ishlariga tayangan holda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, xorijiy tajribalar, ta'lim sifatini baholash milliy markazi, kasbiy kompetentlik, o'qish savodxonligi, tushunish darajasi, ta'lim tizimi.

Аннотация: В статье рассматриваются требования к международной программе оценивания и принципы ее внедрения в систему образования, а также важные особенности международных программ оценивания PISA, PIRLS, основанные на мнениях зарубежных ученых, исследовательской работе.

Ключевые слова: международные программы оценки, PISA, PIRLS, зарубежный опыт, Национальный центр оценки качества образования, профессиональная компетентность, грамотность чтения, уровень понимания, система образования

Annotation: This article discusses the requirements of the international assessment program and the principles of its introduction into the education system, as well as the important features of the international assessment programs PISA, PIRLS, based on the views of foreign scientists, research work.

Keywords: international assessment programs, PISA, PIRLS, foreign experience, National Center for Educational Quality Assessment, professional competence, reading literacy, level of understanding, education system.

Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab har bir sohada globallashuv va integratsiya jarayonlari o'z aksini ko'rsatmoqda. Globalizatsiya taraqqiy etgan insoniyat hamjamiyatida tabiiy ravishda sodir bo'ladigan, axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan va jamiyatdagi barcha sohalarning yaxlitlashuvi, universallashuvi va integratsiyalashuvi bilan bog'liq bo'lgan jarayondir.

Jamiyat va hayotda sodir bo'layotgan yangilanishlar ta'lim tizimini ham yangicha innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishni, integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirish omillari dolzarb masalalar qatoriga kirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarorida eng ustuvor vazifa qilib quyidagilar belgilandi:

- xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish;
- *PISA*, *PIRLS* baholash dasturi yo'nalishidagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish.

O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan amaliy ishlar, ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

PISA - o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, asosiy maqsadi - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko'rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu dastur 1997 yilda tashkil etilgan. PISA dasturi ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlaydi va boshqa davlatlarga nisbatan mavqeyini taqqoslaydi.

PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtrok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o'rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. O'quvchilarni xalqaro PISA, PIRLS baholashning asl mohiyati o'quvchilarda tafakkur uyg'oqligi, ularni ixtirochi, ijodkorlikka o'rgatishning asosiy belgisi hisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning "Milliy dasturi"ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni

2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

3. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

5. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 243-247.

6. Abdirimova, I. K. (2020). Loyihalash faoliyatining bosqichlari loyihaga yondashuv mohiyati va maqsadlar uyg'unligi. Science and Education, 1(Special Issue 2). 18-26.22

7. Abdirimova, I. Methods and tools for the implementation of project activity in education.

8. И. К. Абдиримова Гармония образования в формировании любви к стране у молодежи Academic Research in educational sciences volume 2 (Issue 2) 2021 ISSN: 2181-1385, 1416-1421

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xolmo'minova Bahora Abdusalolovna

Jizzax viloyat XTXQTMO hududiy markazi katta o'qituvchisi

Anotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish tizimi tahlil etilgan bo'lib, bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko'nikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs xislatlari, o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko'rsatuvchi mezonlar, o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishga tayyorlashni yosh bosqichlari mazmuni haqida ma'lumot berilgan. Mavzu yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *O'qituvchi, o'quvchi, boshlang'ich ta'lim, kasb, kasbga yo'naltirish.*

Аннотация

В данной статье анализируется система профориентации учащихся начальных классов, в процессе которой педагогические умения, знания и умения учителя в выборе профессии, задачи, а также личностные качества в выборе профессии помогают учащимся в выборе профессии. Критерии готовности, информация о содержании возрастных этапов подготовки учащихся к профориентации. Разработаны методические рекомендации по теме.

Ключевые слова: *учитель, ученик, начальное образование, профессия, профориентация*

Annotation

This article analyzes the career guidance system for primary school students, during which the pedagogical skills, knowledge and skills of the teacher in choosing a profession, tasks, as well as personal qualities in choosing a profession help students in choosing a profession. Readiness criteria, information about the content of the age stages of preparing

МУНДАРИЖА

№	МУАЛЛИФЛАР	Бет
1	Шарипов Ш.С. Кириш сўзи.....	3
	БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ УЗВИЙЛИГИ	
2	Абдуллаева Б.С. Олий таълим ташкилотлари талабаларини математик компетенцияларини ривожлантиришнинг методологик асослари.....	5
3	Худайбергенова З. Коммуникатив таълим: шаклланиши ва ривож тарихи.....	8
4	Наз Пенах. Актуальные вопросы методики преподавания тюркской литературы.....	14
5	Жолдасбекова С.А. Интегративный подход к формированию арт-технологических умений младших школьников.....	19
6	Жуманазаров У. “Алпомиш” достонини ўрганишда фанлараро боғлиқлик тамойилидан фойдаланиш.....	22
7	Xolboyeva G.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va anglash ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari.....	26
8	Zeki GÜREL. Çocuk edebiyati nedir niçin önemlidir?.....	28
9	Karamatova D.S. Boshlangich sinf o'quvchilarini tabiatshunoslik darslarida atrof muhitni muhofaza qilishga tayyorlash.....	36
10	Özet. Büyük ipek yolu halklarının kültürel bağları ve folklor gelenekleri....	38
11	Ибрагимова Ф.Э., Ахадова Г. Ёш авлодни китобхонлик руҳида тарбиялаш ҳақида мулоҳазалар.....	41
12	To'rabekova A.M. Bolalar adabiyoti orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida.....	44
13	Айнетдинова Э.Ф., Темуров С.Й., Жайнакова У.Т. О единственности решения первой смешанной задачи.....	48
14	Пернесейт Н.Б., Шункебаева С.А. Формирование конструкторско-технологических умений обучающихся на основе практико-ориентированного обучения.....	51
15	Тангиров А.Ж., Тангирова Д.Э. Бошланғич таълим ўқиш машғулотида жомийнинг «баҳористон» асаридан фойдаланиш методикаси.....	55
16	Mehmet Can. Sovyetler birliği'nin türk topluluklarında yaptığı alfabe değişiklikleri ve sonuçları.....	59
17	Тогатай М.М. Бастауыш мектепте ертегілер мен аңыздарды оқытудың маңызы.....	64
18	Safo Matchon., Bolqiev A.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini folklor	

96	Rahmonov I, Qo'ldosheva D. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga "to'plamlar ustida amallar" mavzusini masofaviy o'qitishda aktdan foydalanish.....	286
97	Julboyev T, Sultonov M, Babayev B. Kredit- modul tizimida kimyo fanidan talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini rivojlantirish usullari.....	289
98	Qudratova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijod qilishga o'rgatish usullari.....	291
99	Abdirimova I, Elmurodova A. Ta'lim sifatini baholashda xorij tajribasi....	294
100	Xolmo'minova B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish.....	296
101	Mutalova D, Ergasheva O. Maktabgacha talim tashkilotida klasterli yondashuvning aspektlari.....	298
102	Haydarov D, Haydarova K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining loyihalash kompetensiyalarini texnologiya darslarida lego shaharni yasash orqali shakllantirish.....	300
103	Yo'ldosheva Z. Ona tili va adabiyot darslarida internetdan samarali foydalanish.....	303
104	Тўрақулов У. Омонжўлов О. Таълим мазмунини интеграциялаш.....	307
105	Абдувалиев А. Дастурий кластерни шакллантириш тамойиллари.....	310
106	Абдуалимова Х. Болалар адабиётида фанлараро интеграция масалалари ва уни ўқитиш методикаси.....	314
107	Атабаев Ш, Саидахмедова К, Эргашева М. Креативные методы решения сложных задач в учебном процессе.....	318
108	Темуров С. Таълим муассасасининг рақамли таълим муҳитини шакллантириш ҳақида.....	320
109	Болтаев А. Тренинг ва интерфаол машқлар воситасида бўлажак ўқитувчиларни касбий-шахсий ривожлантириш.....	322
110	Хаққулов К. Masofaviy ta'lim tizimida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish.....	326
111	Раҳмонов И. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг ахборот маданиятини шакллантиришни алгоритмлаш.....	329
112	Abdumajidova D. Boshlang'ichsinflardaintegratsiyalashgan ta'lim.....	332
113	Doniyarov M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish yo'llari.....	335
114	Эргашев Ж. Дарсмашғулотларини олиб боришнинг алгоритмик тизимини шакллантириш.....	337
115	Ergasheva M. Boshlang'ich ta'limda х.к.andersenning "bolalar gurungi" asari talqini.....	340
116	Xolboeva G, Anorboeva M. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida	